

## SURXONDARYO VILOYATI SANOAT KORXONALARI VA AGRAR TIZIMDAGI ISLOHOTLAR

Xolmanova Feruza Uralovna

Termiz Davlat Universiteti Jahon tarixi kafedrası

katta o‘qituvchisi (PhD)

*feruzahalmanova@gmail.com*

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11401675>

**Annotatsiya.** O‘zbekiston Respublikasida agrar sohaning rivojlanish tarixi mustaqillik yillaridan so‘ng yangi bosqichga kirdi. Surxondaryo viloyati asosan paxta etishtirishga ixtisoslashganligi sababli ham vohada paxta tozalash sanoatining alohida o‘rnini bor. Mustaqillik yillarida Surxondaryoda yangi paxta tozalash zavodlari qurilib ishga tushirila boshlandi va engil sanoat sohasida katta o‘zgarishlar bo‘ldi.

**Kalit so‘zlar.** Paxta, Uzun, Denov, Xayrobod, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on, xom ashyo, “Jarqo‘rg‘on tola”, “Surxonpaxtasanoatsotish”, Viloyat paxta tozalash zavodlari.

## INDUSTRIAL ENTERPRISES AND REFORMS IN THE AGRARIAN SYSTEM OF SURKHANDARYA REGION

**Abstract.** The history of the development of the agricultural sector in the Republic of Uzbekistan entered a new stage after the years of independence. Due to the fact that Surkhandarya region mainly specializes in cotton cultivation, the cotton ginning industry has a special place in the oasis. During the years of independence, new cotton ginning factories were built and put into operation in Surkhandarya, and great changes took place in the field of light industry.

**Keywords.** Cotton, Uzun, Denov, Khairabad, Shorchi, Kumkurgan, raw materials, “Jharkurgan fiber”, “Surkhanpakhtasanoatsotish”, Regional cotton ginning factories.

## ПРОМЫШЛЕННЫЕ ПРЕДПРИЯТИЯ И РЕФОРМЫ В АГРАРНОЙ СИСТЕМЕ СУРХАНДАРЬИНСКОЙ ОБЛАСТИ

**Аннотация.** История развития агропромышленного комплекса Республики Узбекистан после лет независимости вступила в новый этап. В связи с тем, что Сурхандарьинская область в основном специализируется на выращивании хлопка, особое место в оазисе занимает хлопкоочистительная промышленность. За годы независимости в Сурхандарьинской области были построены и введены в эксплуатацию новые хлопкоочистительные заводы, произошли большие изменения в сфере легкой промышленности.

**Ключевые слова.** Хлопок, Узун, Денов, Хайрабад, Шорчи, Кумкурган, сырье, «Джаркурганское волокно», «Сурханпахтасаноатсотии», Областные хлопкоочистительные заводы.

**Kirish.** O‘zbekiston jahonda paxta etishtirish bo‘yicha etakchi hisoblansada 1991 yilga qadar xom-ashyoni yarim mahsulot va tayyor mahsulotga qayta ishlash ulushi 7-10 foizdan oshmas edi. Paxta tolasining qolgan qismi boshqa mamlakatlarga qayta ishlash uchun olib ketilar edi.<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Орлова Т. Легкая промышленность: новый этап- новые задачи. “Народное слово” 16 июля 2002 г.

1996 yilga qadar paxta tolasini chetga oldib chiqib ketish strategiyasi va tendensiyasi davom etdi, chunki to‘qimachilik korxonalarida uskunalar va qo‘lanilayotgan texnologiyalarning eskiligi oqibatida jahon bozorida raqobatbardosh tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish imkoniyati yo‘q, eksport qilinayotgan paxta tolasining bahosi ancha yuqori edi. Shu omillarning natijasida hamda sanoatdagi tarkibiy siljishlar oqibatida, ya’ni yoqilg‘i energetika majmuasi va avtomobilsozlik mahsulotlari ishlab chiqarishning rivojlanishi sanoat ishlab chiqarishi umumiylajmiy hajmida to‘qimachilik sanoati ulushining sezilarli kamayishiga olib keldi. 1991 yilda to‘qimachilik sanoatining ulushi 29,7 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2004 yilda 17,6 tashkil qildi.

1996 yildan boshlab paxta tolasining jahondagi bahosining pasayishi sababli, respublikada paxta tolasini qayta ishlash hajmi orta boshladidi va 1996 yil 12 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2003-2004 yillarda 24-25 foizga etdi. Shu bilan birgalikda to‘qimachilik ishlab chiqarish xajmi ham orta boshladidi. 1996-2004 yillarda kalava ip ishlab chiqarish 18 martaga, ip gazlama ishlab chiqarish 10,5 foizga o‘sdi, trikotaj mato 5-6 mln. tonna hajmda barqaror ishlab chiqarildi.<sup>2</sup>

2000 yilda to‘qimachilik sanoatining YAIM dagi ulushi 2,2 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, keyingi yillarda to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining bir muncha ko‘payishi natijasida bu tarmoqning YAIM dagi ulushi 2,8 foizga etdi. Bu ko‘rsatkich talab darajasidan ancha pastdir.

2004 yil yakunlariga ko‘ra yigirish va to‘quvchilik tarmog‘ida asosiy vositalarning eskirish darajasi 45 foizni, tikuvchilik tarmog‘ida esa 95 foizni tashkil qilgan. Tarmoqdagi 2000 yilga qadar tashkil etilgan barcha korxonalarini texnik qayta jihozlash va uskunalarini modernizatsiya qilish zarur. Korxonalardagi uskunalarining eskirish darajasining yuqoriligi natijasida jahoni andozalariga mos keluvchi mahsulot ishlab chiqarish mumkin emas va Shu bilan birgalikda ishlab chiqarilayotgan mahsulot bahosi past bo‘ladi.

Surxondaryo viloyati asosan paxta etishtirishga ixtisoslashganligi sababli ham vohada paxta tozalash sanoatining alohida o‘rnini bor. Mustaqillik yillarida Surxondaryoda yangi paxta tozalash zavodlari qurilib ishga tushirila boshlandi. Jarqo‘rg‘on tumani paxta tozalash zavodi qoshida 1991 yilda “Jarqo‘rg‘on tola” hissadorlik jamiyati paxta tolasini Shveysariya, Buyuk Britaniya, Italiya va Koreya kabi davlatlar firmalariga sotishni yo‘lga qo‘ydi. Dastlab, hissadorlik jamiyatida 25 nafar ishchi mehnat qildi. Ularningo‘rtacha ish haqlari 2001 yilda 15 ming so‘mni tashkil qildi<sup>3</sup>.

1990 yilda mavjud 11 ta paxta tozalash zavodida 143,5 ming tonna paxta tolesi ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 1991 yilda bu raqam 145,4 ming tonnani tashkil etdi. Viloyat engil sanoat korxonalarida 1992 yilda umumiylajmiy uzunligi 1247000 metr bo‘lgan shoyi gazlama, 99,5 mln. dan ortiq so‘mlik tikuvchilik buyumlari, 20,1 ming juft poyabzal, 19,2 ming dona trikotaj buyulari, 5,2 ming dona paypoq, 2,3 tonna yigirilgan ip tayyorlandi<sup>4</sup>.

<sup>2</sup> “Ўзбекенгилсаноат”ДАК маълумотлари

<sup>3</sup> Турсунов С., Тўхтаев А. Жаркўргон. Т., “Фан”, 2008. – Б.138.

<sup>4</sup> Рахимов Б. “Ўзбекистоннинг мустақиллик йилларида ижтимоий-иктисодий ва маданий ҳаёти (Сурхондарё вилояти мисолида 1991-2005 йй)”. Номзодлик диссертацияси автореферати. Т. 2008. – Б.11.

“Surxonpaxtasanoatotish” XJ - 27260,7 ming AQSH dollari miqdorida paxta tolasi eksport qildi<sup>5</sup>.

1994 yilda viloyat paxtakorlari 380098 tonna paxta etishtirib yillik rejani bajargan<sup>6</sup>.

1996 yilda “Surxonoziqovqatsanoati” viloyatda chigitni qayta ishlovchi yagona korxona hisoblanardi.

Ushbu korxonada 1988-89 yillarda 45 ming tonnaga qadar o’simlik yog‘i ishlab chiqarilgan bo‘lsa, 1995 yilda esa 32 ming tonna o’simlik yog‘i ishlab chiqarildi. 1996 yil 7 oyida jamoada, 1995 yildagiga nisbatan 76 foizga o’sishga erishildi. Buning asosiy sababi uyushma tomonidan texnik chigit bilan ta’milanmaganligidir<sup>7</sup>.

1997 yilda Surxondaryo viloyatiga jami: 260 ta traktor va paxta terish mashinalari berilgan. Shundan: Traktor TTZ-100 “Kamminz” dvigatellari o’matilgan 170 ta, paxta terish mashinasi 90 ta, keys apparati bilan 6tani tashkil etgan<sup>8</sup>.

1997 yilgi ma’lumotlarga ko‘ra viloyatimizda jami bo‘lib. 12 ta paxta tozalash zavodi Uzun, Denov, Xayrobod, Sho‘rchi, Qumqo‘rg‘on, Surxon, Jarqo‘rg‘on, Termiz, Muzrabot, Sherobod, Qiziriq, Angor tumanlari bo‘lib ularning tola ishlab chiqarish quvvati bir yilda 230 ming tonna tola yoki 700-710 ming tonna paxta xom-ashyosini ishlash imkoniyatiga ega bo‘lgan..

Zavodlarni katta miqdorda paxta ishlay olish quvvati bilan qurilib qolishining asosiy sababi respublikada paxta etishtirishni 6 million, Shu jumladan viloyatimizda 550-600 ming tonnaga etkazish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Markaziy xokimiyatining 1980-85 yillarda tuzgan 5yillik paxta etishtirishni rivojlantirish to‘g‘risidagi qaroriga asosan bo‘lgan.

Ammo keyingi yillardagi ya’ni 1997 yilda paxta yakka xokimligiga barxam berish, qishloq xo‘jaligi ekinlarini boshqa turlarini etkazishini ham rivojlantirish maqsadida respublikada, Shu jumladan viloyatimizda etishtirilayotgan paxta xom-ashyosi miqdori rejsi bir muncha qisqarib, 380 ming tonna atrofida bo‘lib qoldi.

Jumladan Uzun paxta tozalash zavodida ishlab chiqarish quvvati 40 foizga, Jarqo‘rg‘on 30 foizga, Denov paxta tozalash zavodi 40 foizga, Termiz paxta tozalash zavodi 30 foizga qisqartirildi.

1997 yilda bo‘shab qolgan ishchi kuchini ish bilan ta’minalash maqsadida barcha zavodlarda tikuv sexi, Uzun, Angor paxta tozalash zavodlarida noto‘qima mato ishlab chiqarish kichik korxonalari ishlamoqda<sup>9</sup>.

1997 yilda viloyatimizda paxta tolasini qayta ishlaydigan “O‘zbekengilsanoat” davlat uyushmasiga qarashli yagona “Surxontekstil” xissadorlik jamiyati faoliyat yuritgan.

Termiz Paxta tozalash korxonasi Respublika Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 25 noyordagi № 491-sonli qarorining 2- bandi bilan Respublikada yagona ingichka tolali paxta urug‘ini etishtirib beradigan korxona hisoblanardi. Termiz tumanida joylashgan ingichka tolali paxta seleksiyasini etishtirib sinovdan o’tkazadigan birdan-bir paxtachilik ilmiy sinov tajriba stansiyasi tomonidan etishtirilgan yangi seleksiyalarini ham Shu zavodda qayta ishlab chiqariladi.

<sup>5</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1 рўйхат , 972 иш. 56- варак.

<sup>6</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1рўйхат ,316 иш. 27 - варак.

<sup>7</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1рўйхат ,444 иш. 40- варак.

<sup>8</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1рўйхат ,522 иш. 4- варак.

<sup>9</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1рўйхат ,515 иш. 10- варак.

Termiz paxta tozalash korxonasi urug'lik chigit ishlashga moslashtirilgani uchun texnologik jaryon zamonaviy yangi texnikalar bilan jihozlangan, atrof-muhitni ifloslantirish tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi talablariga to'la javob beradi. Korxona istiqbolli g'o'za seleksiyasi urug'larini ishlab chiqarishga moslashgan<sup>10</sup>.

Korxonada 1998 yilda o'rtacha 809,0 mln, so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, Termiz shahrida sanoat mahsulotlariishlab chiqarishning 75 foizini tashkil etadi, ishlab chiqarilgan mahsulotning 77 foizi chet malakatlarga eksport qilingan. Ushbu yilda korxona 17768 ming so'm foyda bilan yakunlagan va korxonada 500 kishidan ortiq ishchi xizmatchi va injener texnik xodimlar ishlashgan. 1999 yilda korxonada 282 ta xotin-qizlar ishlagan<sup>11</sup>.

Bu korxona 2000 ga yaqin ishchi va xizmatchilarni ish bilan ta'minlab, yiliga 2000 tonna paxta tolasini qayta ishlagan va "Uzpaxtasanoatsotish" uyushmasiga qarashli Uzun hamda Angor tumani paxta tozalash zavodlari qoshidagi "Noto'qimato" ishlab chiqarish sexlarini kalava ip bilan ta'minlab kelgan<sup>12</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 9 apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora tadbirlari to'g'risida" gi PF-1987 sonli farmonidan kelib chiqib, aholining sanoat mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish va yangi o'rinalarini yaratish maqsadida "CHUNG" xususiy sanoat savdo korxonasi tashkil etilgan.

Bu korxona yiliga 850 tonna xo'jalikbob paxta mahsulotlarini qayta ishlab, 255,0 mln so'mlik tayyor mahsulot ishlab chiqarish quvvatiga ega<sup>13</sup>.

Viloyat paxta tozalash zavodlari 2001 yilning 15 yanvarigacha bo'lgan holatiga ko'ra yog'-moy korxonalariga chigit etkazib berish rejasini 1 ming tonnaga bajarmagan, natijada yog'-moy mahsulotlari ishlab chiqarish keskin kamayib ketdi. Aholi o'simlik yog'i, chorvachilik ozuqa em bilan ta'minlanmayapti<sup>14</sup>.

2001 yilda "Xayrobodpaxta" AJ da kam ta'minlangan oilalarga va ishchilarga dafn va to'y marosimlarini o'tkazish uchun moddiy yordamlar berilgan. Ushbu summa 10.000 mingdan 15.000 mingacha bo'lgan hamda dam olish kunlari ishlaganliklari uchun qo'shimcha haq to'langan<sup>15</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishiga asosan 1 avgust 2001 yildan ish haqqi, stependiyalar va ijtimoiy nafaqalarning 1,4 barobariga oshganligidan kelib chiqib, zavod mehnatkashlarining bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayonida ularning ijtimoiy va iqtisodiy manfaatlarini himoyalash maqsadida "Xayrobodpaxta" AJda bir qancha ishlar amalga oshirilgan. Korxonada 1 avgust 2001 yildan boshlab, eng kam ish haqqi 5000 so'm, ishchilar ovqat puli 350 ming so'm miqdorida belgilangan<sup>16</sup>.

2002 yil "Qariyalarni qadrlash yili" Davlat dasturidan kelib chiqqan holda hamda "1-oktyabr Murabbiylar va Nuroniyalar kuni" munosabati bilan "Hayrobodpaxta" AJ da ishlab nafaqaga chiqqan bir guruh nuroniyalarga bayram dasturxoni tashkil etilgan hamda 25.000 ming,

<sup>10</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1рўйхат , 795 иш. 75- варак.

<sup>11</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1рўйхат ,795 иш. 75-76- варак.

<sup>12</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1рўйхат ,522 иш. 204- варак.

<sup>13</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1 рўйхат , 107 иш. 20 - варак.

<sup>14</sup> Сурхондарё вилоят давлат архиви 1091 жамғарма, 1 рўйхат , 1156 иш. 9- варак.

<sup>15</sup> Денов туман давлат архиви 711 жамғарма, 1 рўйхат, 5-иш. 4-варак.

<sup>16</sup> Денов туман давлат архиви 711 жамғарма, 1 рўйхат, 5-иш. 20-варак.

15000 ming va 10.000 ming so‘m miqdorida mukofot pullari berilgan<sup>17</sup>. 2002 yili korxonada har haftaning dushanba kuni “Sifat kuni” deb belgilangan<sup>18</sup>.

2003 yil hosilidan tayyorlangan jami 39837,9 tonna xom-ashyosini 9366,7 tonnasi Surxondaryo viloyat “Paxtasanoat” birlashmasining buyrug‘iga asosan Termiz paxta zavodiga 2870,4 tonna, Jarqo‘rg‘on paxta zavodi 2003,9 tonna, Angor paxta zavodi 4468,0 tonna, Sherobod paxta zavodiga 34,4 tonna paxta xom-ashyosini qayta ishslash uchun berilgan<sup>19</sup>.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki 1991-2003 yillarda Surxondaryo viloyatida paxta sanoatida bir qancha iqtisodiy o‘zgarishlar yuz berganligini ko‘rishimiz mumkin.

## REFERENCES

1. Орлова Т. Легкая промышленности: новый этап- новые задачи. “Народное слово” 16 июль 2002 г.
2. “O‘zbekengilsanoat”DAK ma’lumotlari
3. Tursunov S., To‘xtaev A. Jarqo‘rg‘on. T., “Fan”, 2008. – B.138.
4. Rahimov B. “O‘zbekistonning mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (Surxondaryo viloyati misolida 1991-2005 yy)”. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. T. 2008. – B .11.
5. Surxondaryo viloyat davlat arxivni 1091 jamg‘arma, 1 ro‘yxat , 972 ish. 56- varaq.
6. Tursunov S., To‘xtaev A. Jarqo‘rg‘on. T., “Fan”, 2008. – B.138.
7. Rahimov B. “O‘zbekistonning mustaqillik yillarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti (Surxondaryo viloyati misolida 1991-2005 yy)”. Nomzodlik dissertatsiyasi avtoreferati. T. 2008. – B .11.
8. Surxondaryo viloyat davlat arxivni 1091 jamg‘arma, 1 ro‘yxat , 972 ish. 56- varaq.
9. Холманова Ф.У. О роли предприятий легкой промышленности экономике Сурхандарьи. Бюллтень науки и практики. 6(12) Б-483-486
10. Холманова Ф.У. Озиқ-овқат саноатининг худудий ташкил этилиши. Ўтишга назар. Б-436
11. Холманова Ф.У. Сурхондарё вилояти иқтисодиётида енгил саноат корхоналарининг ўрни. MODERN SCIENCE AND RESEARCH. 2023 й.236-240 бб.
12. Холманова Ф.У. Саноат корхоналари иш самарадорлиги ошириш ва аграр тизимидаги ислоҳатлар. MODERN SCIENCE AND RESEARCH. 2023 й. 247-252 бб.
13. Habibullo o‘g‘li, R. M. (2023). SURXON VOHASI TOQCHI QAVMINING AN’ANAVIY TURMUSH TARZI.
14. To‘Rayev, S. G. O. G. L., & Raxmonov, M. X. O. G. L. (2022). BX KARMISHEVA TADQIQOTLARIDA SURXON VOHASI YUZ URUG‘LARINING ETNIK TAVSIFI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 43-51.
15. Рахмонов, М. (2023). Surxon vohasi toqchi qavmlari hududiy joylashuvining ilmiy tahlili. *История и культура центральной Азии*, 1(1), 341-344.

<sup>17</sup> Денов туман давлат архиви 711 жамғарма, 1 рўйхат, 4-иш. 29-варак.

<sup>18</sup> Денов туман давлат архиви 711 жамғарма, 1 рўйхат, 5-иш. 51-варак.

<sup>19</sup> Ўзбекистон Миллий архиви.8 жамғарма, 1 рўйхат, 693 иш .479- варак.

16. Rahmonov, M. (2023). TRADITIONAL LIFESTYLE OF THE TOKCHI PEOPLE OF SURKHAN OASIS. *Modern Science and Research*, 2(4), 720-722.
17. Пардаев, Т. Р. (1998). Химизация сельского хозяйства Узбекистана в 60-е годы: состояние и проблемы.
18. Турсунов, С., Пардаев, Т., Турсунов, А., & Тоғаева, М. (2012). Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида номоддий маданият тарихи. *Toшкент: “Муҳаррир*.
19. Турсунов, С., Пардаев, Т., Курбанов, А., & Турсунов, Н. (2006). История и культура Узбекистана: Сурхандарьинская этнография. *Национальное издательство Национальной библиотеки Узбекистана*, 276.
20. Пардаев, Т. Р., & Турсунов, Ж. Н. (2019). САНОАТДА МАҲАЛЛИЙ МУТАХАССИСЛАР ТАЙЁРЛАШГА ТАРИХИЙ НАЗАР. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 26.
21. Пардаев, Т. Р., & Турсунов, Ж. Н. (2019). МУСТАБИД ТУЗУМНИНГ МИЛЛИЙ ВА ДИНИЙ ҚАДРИЯТЛАРГА МУНОСАБАТИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, 23.